

«TASDIQLAYMAN»

«Mikrokreditbank» ATB

Boshqaruv Raisi o‘rinbosari

S.Melibayev

2026 y.



TEXNIK TOPSHIRIQNOMA

«Mikrokreditbank» ATB uchun monoblok xarid qilish bo'yicha

“ISHLAB CHIQLDI”

Axborot texnologiyalari

departamenti direktori

M. Turaxujayev M.Turaxujayev

Toshkent – 2026-yil

TEXNIK QISM

«Mikrokreditbank» ATB uchun monoblok xarid qilish bo'yicha

1.	Loyihani amalga oshirish asosi	«Mikrokreditbank» ATB _____ Boshqaruvi qarori.
2.	Xarid qilish maqsadi	«Mikrokreditbank» ATBni kompyuter texnikalari bilan ta'minlash.
3.	Buyurtmachi	«Mikrokreditbank» ATB. Manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi 4-uy
4.	Yetkazib beruvchi	Mazkur tanlov hujjatlari talablariga javob beruvchi va baholash mezonlari bo'yicha eng yaxshi taklifni taqdim etgan xorijiy yoki mahalliy yuridik shaxs.
5.	Xarid qilinadigan mahsulot miqdori	300 (uch yuz) dona monoblok.
6.	Mahsulotni sug'urtalash	Yetkazib berish shartlariga muvofiq
7.	Yetkazib berish joyi	Buyurtmachining omboriga: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi 4-uy.
8.	Qadoqlash talablari	Qadoqlash mahsulotni shikastlanishdan himoya qilishi va uni 1 yil davomida isitilmaydigan omborlarda saqlash imkonini berishi kerak. Yetkazib beruvchi noto'g'ri qadoqlash oqibatida yuzaga kelgan barcha zararlar uchun to'liq javobgar hisoblanadi.
9.	Mahsulot markirovkasi	Markirovka xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchi talablariga muvofiq bo'lishi kerak.
10.	Texnik reglamentlarga muvofiqlik talablari	Uskuna yong'in, sanitariya, elektr xavfsizligi va elektromagnit moslik bo'yicha amaldagi standart va normalarga javob berishi kerak.
11.	Mahsulot yangiligi talablari	Yetkazib berilayotgan mahsulot yangi, ilgari foydalanilmagan, qayta tiklanmagan, ko'rgazma namunasi bo'lmagan hamda ishlab chiqarilganiga 12 oydan oshmagan bo'lishi kerak.
12.	Hujjatlarga qo'yiladigan talablar	Yetkazib beruvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart: - transport yuk xati; - foydalanish bo'yicha qo'llanma; - kelib chiqish sertifikat.
13.	Yetkazib berish muddati	Oldindan to'lov yetkazib beruvchining hisobiga tushgan kundan boshlab maksimal 30 bank ish kuni.
14.	Montaj ishlari bo'yicha talablar	Talab etilmaydi.
15.	Kafolatli xizmat ko'rsatish	Kompyuter texnikasi uchun kafolat muddati qabul-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan

TEXNIK QISM

«Mikrokreditbank» ATB uchun monoblok xarid qilish bo'yicha

1.	Loyihani amalga oshirish asosi	«Mikrokreditbank» ATB _____ Boshqaruvi qarori.
2.	Xarid qilish maqsadi	«Mikrokreditbank» ATBni kompyuter texnikalari bilan ta'minlash.
3.	Buyurtmachi	«Mikrokreditbank» ATB. Manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi 4-uy
4.	Yetkazib beruvchi	Mazkur tanlov hujjatlari talablariga javob beruvchi va baholash mezonlari bo'yicha eng yaxshi taklifni taqdim etgan xorijiy yoki mahalliy yuridik shaxs.
5.	Xarid qilinadigan mahsulot miqdori	300 (uch yuz) dona monoblok.
6.	Mahsulotni sug'urtalash	Yetkazib berish shartlariga muvofiq
7.	Yetkazib berish joyi	Buyurtmachining omboriga: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi 4-uy.
8.	Qadoqlash talablari	Qadoqlash mahsulotni shikastlanishdan himoya qilishi va uni 1 yil davomida isitilmaydigan omborlarda saqlash imkonini berishi kerak. Yetkazib beruvchi noto'g'ri qadoqlash oqibatida yuzaga kelgan barcha zararlar uchun to'liq javobgar hisoblanadi.
9.	Mahsulot markirovkasi	Markirovka xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchi talablariga muvofiq bo'lishi kerak.
10.	Texnik reglamentlarga muvofiqlik talablari	Uskuna yong'in, sanitariya, elektr xavfsizligi va elektromagnit moslik bo'yicha amaldagi standart va normalarga javob berishi kerak.
11.	Mahsulot yangiligi talablari	Yetkazib berilayotgan mahsulot yangi, ilgari foydalanilmagan, qayta tiklanmagan, ko'rgazma namunasi bo'lmagan hamda ishlab chiqarilganiga 12 oydan oshmagan bo'lishi kerak.
12.	Hujjatlarga qo'yiladigan talablar	Yetkazib beruvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart: - transport yuk xati; - foydalanish bo'yicha qo'llanma; - kelib chiqish sertifikat.
13.	Yetkazib berish muddati	Oldindan to'lov yetkazib beruvchining hisobiga tushgan kundan boshlab maksimal 30 bank ish kuni.
14.	Montaj ishlari bo'yicha talablar	Talab etilmaydi.
15.	Kafolatli xizmat ko'rsatish	Kompyuter texnikasi uchun kafolat muddati qabul-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan

		boshlab kamida 36 oy bo'lishi kerak. Kafolat davrida mahsulotda nuqson aniqlansa, vakolatli servis markazi bepul ta'mirlash yoki almashtirishni amalga oshiradi. Servis markazi O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida filial va qabul punktlariga ega bo'lishi kerak.
16.	Ekspluatatsiya xarajatlariga qo'yiladigan talablar	Yetkazib beruvchi quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishi kerak: - uskuna qo'llab-quvvatlash muddati; - ehtiyot qismlar yetkazib berish muddati; - TCO (Total Cost of Ownership) ni kamaytirish usullari; - energiya samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar.
17.	Mahsulotni topshirish va qabul qilish tartibi	Mahsulotning butligi va komplektligi tekshirilgan holda qabul qilinadi.

1. Monoblok uskunasiga qo'yiladigan talablar

Umumiy talablar:

Texnik spetsifikatsiyada ko'rsatilgan barcha parametrlar minimal talab hisoblanadi. Taklif etilayotgan uskunalar ushbu parametrlarga mos yoki undan yuqori bo'lishi kerak. Monoblok va kiritish qurilmalari bir xil ishlab chiqaruvchiga tegishli bo'lishi lozim. Barcha qurilmalar yangi, foydalanilmagan va original bo'lishi talab etiladi.

Uskuna turi	Korporativ darajadagi monoblok kompyuter (biznes-seriya)
Ekran	Display diagonali 23,8 dyuymdan kam bo'lmagan, aks ettirishga qarshi (anti-glare) qoplamali, ruxsat etish imkoniyati 1920x1080 dan kam bo'lmagan, ramkasiz LED FHD.
Protsessor	Intel Core i5 14-avlod yoki undan yuqori Yadrolar soni: 14 tadan kam bo'lmagan; Oqimlar soni: 20 tadan kam bo'lmagan; Protsessorning baza chastotasi: 2.0 - 5.0 GHz dan kam bo'lmagan; Kesh-xotira: 24 MB dan kam bo'lmagan.
Tezkor xotira (RAM)	16 GB (1x16GB) DDR5 4800 SODIMM dan kam bo'lmagan.
Grafika	Zamonaviy integratsiyalashgan grafik adapterga ega bo'lishi hamda Full HD (1920x1080) va undan yuqori aniqlikdagi tasvirlarni qo'llab-quvvatlashi kerak.

Maksimal xotira hajmi	DDR5 4800 SODIMM dan kam bo'lmagan, 64GB gacha kengaytirish imkoniyati; Tezkor xotira slotlari soni - 2 ta.
Operatsion tizim	Amaldagi Windows 11 Pro litsenziyalangan muddatsiz versiyasi, ko'p tilli interfeysni qo'llab-quvvatlovchi, original litsenziya stikeri mavjud bo'lishi shart; Active Directory domeniga ulanish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak; TPM 2.0 hamda BitLocker texnologiyasini qo'llab-quvvatlashi kerak.
Ichki disk (Xotira)	512 GB SSD M.2 NVMe dan kam bo'lmagan. Ikkinchi HDD saqlash qurilmasini o'rnatish imkoniyati.
Portlar va konnektorlar	Kamida 1 ta naushnik va mikrofon uchun kombinatsiyalangan uysi; USB portlarining umumiy soni kamida 6 ta. Quyidagi turlar bo'lishi majburiy: SuperSpeed USB Type-C® (10 Gbit/s), USB Type-A, HDMI 1.4, DisplayPort™ 1.4a va RJ-45 — tashqi qurilmalarni moslashuvchan ulashni ta'minlashi kerak.
Taglik (Podstavka)	monitor balandligi va og'ish burchagini sozlash imkoniyati mavjud bo'lishi kerak.
Audio	HD Audio kodeki yoki ekvivalenti, ichki dinamik, naushnik va mikrofon uchun kombinatsiyalangan uya, o'rnatilgan stereo dinamiklar.
Kamera	Videokonferensaloqa tizimi markaziy yuqori qismda joylashgan, kamida 5 MP aniqlikdagi ichki chiqariluvchi kamerani hamda ichki yo'naltirilgan raqamli mikrofonni o'z ichiga olishi kerak.
Mikrofon va Dinamik	Monoblok korpusiga yoki kamerasiga o'rnatilgan ikki tomonlama raqamli mikrofon bo'lishi shart.
Tarmoq interfeysi	Tarmoq kontrolleri 10/100/1000 Mbit/s; Wi-Fi 6 yoki undan yuqori standartni qo'llab-quvvatlashi kerak.
Quvvat manbai	Tashqi quvvat adaptori 150 Vt, 220VAC tarmoqdan ishlash (10% og'ish bilan, 50Hz), foydali ish koeffitsiyenti (FIK) 89% gacha, quvvat faktorini faol tuzatish (PFC) tizimi bilan. Uskuna Energy Star, EPEAT yoki ekvivalent xalqaro energiya samaradorligi standartlariga mos bo'lishi kerak.
Xavfsizlikni boshqarish	Ketma-ket interfeys (serial port) ulagichini o'chirish imkoniyati; USB portlarini o'chirish imkoniyati (BIOS orqali); Korpus va kabellar uchun qulflash moslamalari o'rnatish imkoniyati; Korpus qopqog'i ochilganini aniqlovchi sensor o'rnatish imkoniyati; Foydalanuvchini autentifikatsiya qilish; Qattiq diskdagi ma'lumotlarni shifrlash (yoki shunga o'xshash xavfsizlik funksiyalari).
Klaviatura va Sichqoncha	Yetkazib berish to'plamiga QWERTY/ЙЦУКЕГ tartibidagi simli klaviatura va sichqonchasi kiradi (ishlab chiqaruvchisi monoblok ishlab chiqaruvchisi bilan bir xil bo'lishi shart).

Rang	Oq / Qora.
Kafolat muddati	3 yil. Kafolatli qo'llab-quvvatlash mahsulot ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etilishi va ishlab chiqaruvchining Toshkent shahridagi hamda O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlaridagi avtorizatsiyalangan servis markazlarida amalga oshirilishi shart.
Ishlab chiqaruvchining xalqaro reytingi	Taklif etilayotgan uskuna ishlab chiqaruvchisi IDC va/yoki Gartner xalqaro tahliliy agentliklarining Top-5 ishlab chiqaruvchilari qatoriga kirishi kerak.
Rasmiy ishlab chiqaruvchi sayti	Ishlab chiqaruvchining rasmiy veb-sayti mavjud bo'lishi va unda qurilmaning texnik xususiyatlarini seriya raqami orqali tekshirish imkoniyati bo'lishi kerak.
BIOS, firmware va drayverlarni qo'llab-quvvatlash	Ishlab chiqaruvchi tomonidan rasmiy BIOS, firmware va drayver yangilanishlari qo'llab-quvvatlanishi kerak.
Ekvivalent qurilmalar bo'yicha himoya	Taklif etilayotgan ekvivalent uskunalar texnik, funksional va ekspluatatsion ko'rsatkichlari bo'yicha ko'rsatilgan minimal talablardan past bo'lmasligi kerak.
Servis xizmatining javob berish muddati (SLA)	Kafolat davrida yuzaga kelgan nosozliklar bo'yicha Yetkazib beruvchi Buyurtmachi murojaatidan so'ng 5 ish kuni ichida muammoni bartaraf etishi yoki nosoz qurilmani almashtirishi shart.

Yetkazib beruvchiga qo'yiladigan majburiy talablar:

- Mazkur tanlov bo'yicha uskunani yetkazib berish uchun ishlab chiqaruvchining vakolatli bo'linmasi tomonidan berilgan original yoki nusxadagi avtorizatsiya hujjati mavjud bo'lishi kerak;
- O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida servis markazlari mavjud bo'lishi kerak.
- Buyurtmachi tanlov davomida monoblok namunasi talab qilish huquqiga ega.
- Buyurtmachi Yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib berilayotgan mahsulot bilan tanishish huquqiga ega;
- Shartnoma predmetiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi;
- Yetkazib beruvchi yangi (ilgari foydalanilmagan), qayta tiklanmagan (refurbished emas), to'liq komplektlangan va ishga yaroqli uskunani yetkazib berishi shart. Yetkazib berilayotgan uskuna ishlab chiqarilgan sanasi bo'yicha yangi bo'lishi va ishlab

chiqarilganiga 12 oydan oshmagan bo'lishi kerak hamda ishlab chiqarishdan chiqarilmagan bo'lishi kerak;

- Yetkazib beruvchi mahsulot uchun kafolat taqdim etishi shart;
- Mahsulot batafsil texnik tavsifda ko'rsatilgan barcha texnik talab va parametrlarga to'liq mos bo'lishi kerak;
- Mahsulot sertifikatlashtirilgan bo'lishi shart (agar mahsulot majburiy sertifikatlanadigan turga kirs);
- Sifatsiz yoki texnik talablarga mos kelmaydigan mahsulot qabul qilinmaydi va qaytarib yuboriladi;
- Amal qilish muddati o'tgan, shuningdek shikastlangan qadoqdagi mahsulotlarni yetkazib berish taqiqlanadi;
- Mahsulot narxiga yetkazib berish xizmati ham kiritilgan bo'lishi kerak;
- Original litsenziyalangan dasturiy ta'minotni xarid qilish maqsadida, taklif etilayotgan barcha dasturiy ta'minotni yetkazib berish huquqi tegishli ishlab chiqaruvchi (Microsoft) tomonidan berilgan avtorizatsiya xati bilan tasdiqlanishi kerak.